

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA ZAMONAVIY MUSIQASHUNOSLIK:
MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA**

Pardayeva Jumagul Absamat qizi

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

San’atshunoslik (musiqashunoslik)

ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com

Tel: +998-94-874-12-05

Ilmiy rahbar: Barno Shamshiyeva

Annotatsiya: Maqola XXI asr musiqashunosligida globallashuv, raqamli texnologiyalar va iqtisodiy jarayonlarning ta’sirini tahlil qiladi. O‘zbek musiqashunosligidagi asosiy muammolar: nazariyaning yetishmasligi, maqom va an’anaviy tizimlarning ilmiy modellashtirilmasligi, raqamli arxivlarning kamligi va ilmiy raqobatning pastligi. Maqolada milliy musiqiy nazariyani modernizatsiya qilish, raqamli tahlilni joriy etish, musiqani iqtisodiyot bilan bog‘lash, grant va raqobat tizimini mustahkamlash, global kontekstda milliy musiqani tadqiq etish kabi strategic vazifalar belgilangan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, zamonaviy musiqashunoslik, O‘zbekiston musiqiy merosi, maqom, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot va musiqa, ilmiy raqobat, multidisiplinar tadqiqotlar.

Аннотация: Статья анализирует влияние глобализации, цифровых технологий и экономических процессов на музыковедение XXI века. Основные проблемы узбекской музыкальной науки: недостаток теории, отсутствие научного моделирования макамов и традиционных систем, ограниченные цифровые архивы и низкая конкуренция. В статье определены стратегические задачи: модернизация национальной музыкальной теории, внедрение цифрового анализа, интеграция музыки с экономикой, укрепление системы грантов и конкуренции, исследование национальной музыки в глобальном контексте.

Ключевые слова: глобализация, современное музыковедение, музыкальное наследие Узбекистана, маком, цифровые технологии, экономика и музыка, научная конкуренция, междисциплинарные исследования.

Annotation: The article examines the impact of globalization, digital technologies, and economic processes on 21st-century musicology. Key challenges in Uzbek musicology include the lack of theory, absence of scientific modeling of maqams and traditional systems, limited digital archives, and low academic competition.

Strategic tasks outlined include modernizing national music theory, implementing digital analysis, integrating music with the economy, strengthening grant and competition systems, and researching national music in a global context.

Key words: *globalization, contemporary musicology, musical heritage of Uzbekistan, maqom, digital technologies, economics and music, scientific competition, interdisciplinary research.*

Globalashuv jarayoni XXI asr musiqashunosligining konseptual asoslarini chuqur o'zgartirib yubordi. Ilgari musiqashunoslik ko'proq tarixiy jarayonlarni o'rganish, musiqiy merosni tavsiflash yoki janrlarning shakllanish bosqichlarini aniqlash bilan cheklangan bo'lsa, bugungi davrda uning vazifalari keskin kengaydi. Endi musiqashunoslik global madaniy almashinuv, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy jarayonlar, sun'iy intellekt, transmilliy musiqiy tizimlar va jamiyatning musiqiy ongidagi o'zgarishlarni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, zamonaviy musiqashunoslik "bir madaniyatga doir materiallarni o'rganadigan fan"dan chiqib, "musical knowledge and cultural dynamics" – musiqiy bilim va madaniy jarayonlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni izohlovchi yirik ilmiy madaniy sohaga aylandi. Amerika musiqashunoslari R. Taruskin va C. Treitler ta'kidlaganidek, "bugungi musiqashunoslik – tarixiy faktlar yig'indisi emas, balki musiqaning jamiyatdagi vazifasini tushuntiruvchi tanqidiy maydondir; global madaniyat esa bu maydon chegaralarini butunlay yo'q qildi"²⁹. Globalashuv avvalo musiqaning tarqalish tezligini o'zgartirdi: ilgari ma'lum bir hudud bilan chegaralangan musiqiy shakllar, ohanglar, cholg'u uslublari, ritm modellari endi bir necha soat ichida dunyo bo'ylab tarqalmoqda. Bu jarayon musiqaning "milliyligiga" ta'sir qilmasdan qolmadi; aksincha, musiqiy o'zligi endi qat'iy chegaralangan tizim emas, balki o'zgaruvchan, ochiq, migratsiyaga moyil madaniy tuzilmaga aylandi. Bu haqda ingliz etnomusiqashunosi Simha Arom shunday deydi: "Musiqqa endi geografik hodisa emas; uning manbai, tinglovchilari, tarqalish mexanizmi global miqyosda qayta belgilandi"³⁰. Natijada, milliy musiqalar o'rtasida o'zaro ta'sir, o'zaro moslashuv va gibril shakllar keskin kuchaydi; zamonaviy musiqashunoslik esa bu o'zgarishlarni ilmiy asosda izohlashi zarur. Globalashuvning yana bir muhim ta'siri – musiqiy bilimlar iste'moli va ishlab chiqarishining demokratlashuvi. Ilgari musiqa nazariyasi professionallar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, konservatoriya yoki ilmiy institut bilan bog'liq intellectual muhitda shakllangan. Bugun esa YouTube, Coursera, edX, Masterclass kabi platformalar nazariy bilimlarni ommaga ochdi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, musiqiy bilim avvalgi kabi yopiq elita maydoni bo'lib qolmayapti. Ammo salbiy tomoni ham yo'q emas – nazariyaning soddalashtirilishi, murakkab ilmiy tushunchalarning ommabop uslubda tarqalishi musiqashunoslikning akademik

mavqeiga zarar yetkazishi mumkin. Bu borada kanadalik tadqiqotchi D. Cook shunday ogohlantiradi: “Ommaviy platformalardagi musiqiy bilim – bu haqiqiy ilmiy nazariya emas, balki uning soddalashtirilgan, ko‘pincha buzilgan ko‘rinishidir; akademik musiqashunoslik bunday sharoitda o‘z standartlarini yanada mustahkamlashi zarur”³¹. Raqamli texnologiyalar esa globallashuvning eng kuchli harakatlantiruvchi kuchi sifatida musiqashunoslikni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda sun‘iy intellekt, Mashinaviy o‘rganish, spektral tahlil, Musiqani raqamli tahlil qilish tizimlari musiqiy materiallarni o‘rganishning asosiy vositasiga aylandi. MIT Music Lab, Stanford CCRMA, Amsterdam universitetining Musiqani raqamli tahlil qilish (MIR) bo‘limi kabi markazlarda millionlab audio yozuvlar akustik, ritmik, tembral ko‘rsatkichlar bo‘yicha algoritmik tahlil qilinmoqda. Bu jarayon, Bruno Nettle ta‘kidlaganidek, “musiqani nafaqat eshitish, balki uni raqamli ma‘lumot sifatida ko‘rish imkonini berdi”³². Shu bilan birga, raqamli arxivlar Smithsonian Folkways, British Library Sound Archive, Europeana Sounds – global musiqiy merosni saqlash, tavsiflash va qayta tiklash bo‘yicha ilgari bo‘lmagan imkoniyatlarni yaratyapti. Ammo O‘zbekistonda bunday tizimli raqamlashtirish ishlari endi boshlandi va mavjud arxivlarning katta qismi analog holda qolmoqda, Musiqani raqamli tahlil qilish asosidagi ilmiy tahlillar esa deyarli yo‘q. Bu esa milliy musiqiy merosning global ilmiy alamshinuviga kirish jarayonini sekinlashtirmoqda. Globallashuv sharoitida yana bir muhim o‘zgarish – musiqaning iqtisodiy jarayonga aylanishidir. Streaming³³ platformalarining paydo bo‘lishi musiqani iste‘mol qilish modelini tubdan o‘zgartirdi: Spotify, Apple Music, Yandex Music, YouTube Music kabi tizimlar musiqani global bozorga chiqardi. Bu jarayon musiqashunoslik uchun yangi tadqiqot sohalarini ochdi: musiqa industriyasi iqtisodiyoti, iste‘molchilar xulq-atvori, algoritmik tizimlar, festivallar iqtisodiy modeli, kreativ industriyalar geografiyasi. Germaniyalik madaniyatshunos D. Hesmondhalghning fikricha, “musiqa endi san‘at bozori bilan to‘liq integratsiyalashgan iqtisodiy sektor bo‘lib, musiqashunoslik bu jarayonni nazardan chetda qoldirsa, fan sifatida zamonaviyligini yo‘qotadi”³⁴. O‘zbekistonda esa musiqa iqtisodiyoti bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar deyarli yo‘q; streaming bozorining mahalliy bo‘lagi, festival modeli, ijodkorlar daromad tizimi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar yig‘ilmaydi. Bu esa musiqiy jarayonlarning real iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilishga to‘sqinlik qiladi. Globallashuvning yana bir oqibati – musiqaning ko‘p fanli malaka shakllanishidir. Endi musiqashunos musiqa tarixi va nazariyasini bilish bilan cheklanmaydi; u raqamli texnologiyalar, psixoakustika, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik, lingvistika, ma‘lumotlar tahlili, hatto neyrobiologiya bilan ishlashi zarur. Amerika neyromusiqashunos D. Levitin buni quyidagicha izohlaydi: “Musiqashunoslikning kelajagi – inson miyasi, jamiyat va texnologiya o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirishda; bu esa fanni tabiiy fanlar tomon olib

kirmoqda”³⁵. Shu ma’noda, globallashtirilgan dunyoda musiqashunoslik endi faqat “musiqani o’rganuvchi fan” emas – balki insonning ong, estetik qarash, xotira, o’zligi va ijtimoiy aloqalarini tahlil qiluvchi gumanitar ilmiy platformaga aylandi. Bundan tashqari, global ilmiy hamjamiyatda musiqaning madaniy siyosat bilan aloqasi ham muhim mavzuga aylandi. UNESCOning “Cultural Diversity Report” (2019) hisobotida musiqaning transmilliy kommunikatsiya va madaniy diplomatiyadagi o’rni alohida ta’kidlanadi: “Musiqqa global madaniy uzviylikni kuchaytiradigan vositaga aylandi; milliy musiqalar esa xalqaro oz’likning tarkibiy qismiga aylandi”. Bu fikr O’zbekiston kabi boy merosga ega mamlakatlar uchun juda dolzarb, chunki milliy musiqqa dunyo bozoriga chiqishi uchun ilmiy asoslangan konseptlar, tahlillar va zamonaviy metodologiyalar talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, globallashtirish zamonaviy musiqashunoslikka ikki tomonlama ta’sir ko’rsatmoqda: bir tomondan, imkoniyatlarni kengaytirmoqda – global platformalar, tadqiqot markazlariga ulanish, raqamli arxivlar, grantlar, texnologik vositalar; boshqa tomondan esa, milliy musiqiy tizimlarning o’zligini yo’qotmaslik, ilmiy metodlarning buzilishi, soddalashtirilgan ommaviy talqinlarning kuchayishi kabi xavflarni keltirmoqda. Shu bois musiqashunoslikning zamonaviy manzarasi – bu imkoniyatlar va xavflar o’rtasidagi muvozanatni ilmiy asosda ta’minlash zarur bo’lgan murakkab maydondir. O’zbek musiqashunosligi so’nggi o’n yilliklarda milliy madaniyatni saqlash va targ’ib qilish borasida muhim ishlar qilgan bo’lsa da, zamonaviy global jarayonlar fonida bir qator chuqur tizimli muammolarga duch kelgan. Eng asosiy muammolardan biri – nazariy tadqiqotlarning yetishmasligi, amaliy va tarixiy yondashuvlarning esa mutlaq ustunlik qilayotganidir. Ko’plab ilmiy ishlar maqom tarixi, bastakorlar hayoti yoki folklor materiallarini to’plashga qaratilgan bo’lib, musiqiy tizimlarning ichki qonuniyatlari – lad tuzilmalari, parda tizimi, intonatsion formula, ekspressiv semantika, ritmik model, shakl tamoyillari kabi nazariy yo’nalishlar yetarlicha ishlab chiqilmayapti. Shu bois, xalqaro musiqashunoslik maktablarida qabul qilingan zamonaviy istilohlar, analitik metodlar, akustik tahlil yondashuvlari o’zbek musiqqa ilmiga sekin kirib kelmoqda. Bu borada etnomusiqashunos Bruno Nettl qayd etganidek, “agar musiqqa faqat tarix orqali o’rganilsa, u tirik fenomen sifatida emas, muzlatilgan obyekt sifatida idrok etiladi³⁶”, degan fikr aynan O’zbekiston holati uchun juda mos keladi. Maqom, baxshichilik, dutor ijrochiligi, folklor tizimi va zamonaviy milliy bastakorlikning nazariy mexanizmlari aksariyat hollarda “an’anaviy saboqlar” orqali og’zaki tarzda o’tkazilib, ilmiy tushunchaga aylantirilmayapti. Hozirgi kunda maqom tizimini qayta ilmiy rekonstruksiya qilish zarurati ortib bormoqda: nim pardalar, ularning funksional xususiyatlari, interval o’zgarishlar, shakl ichidagi modulyatsion jarayonlar, intonatsion shakllar kabi atamalar hamon eski qo’lyozmalar asosida yoritiladi. Aslida esa zamonaviy musiqashunoslik an’analari, masalan, turk olimi Yekta da Tanburi Ali Rizo

Bekning turk makom tizimini qaytadan notaga tushirishda akustik o‘lchovlardan foydalangani, yoki Eron olimi Hormoz Farhatning dastgoh tizimini spektral tahlil asosida qayta izohlashi o‘zbek musiqa ilmida ham qo‘llanishi lozim bo‘lgan metodlardir. H. Farhat shunday yozadi: “Sharq musiqasi faqat eshitib o‘rganiladigan fenomen emas, balki ilmiy aniqlikni talab qiladigan murakkab akustik tizimdir”³⁷. Musiqashunoslikda yana bir muhim muammo – iqtisodiyot va musiqa tadqiqotlari orasidagi uzilish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida musiqaning iqtisodiy modeli – mualliflik huquqi, royalty, musiqiy industriya mexanizmlari, sahna iqtisodiyoti, ijodkorlar daromad tizimi, musiqiy brending, konsert marketingi kabi yo‘nalishlar O‘zbekistonda ilmiy darajada o‘rganilmayapti. Aslida xalqaro maydonda “Music Economics”, “Cultural Management”, “Creative Industries Studies” kabi fanlar shakllanib, har yili yuzlab tadqiqotlar chop etilmoqda. Masalan, D. Throsby ta’kidlaganidek, “Madaniyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi; aksincha, madaniyat iqtisodiyotning eng innovatsion segmentiga aylanmoqda”³⁸. O‘zbekistonda esa musiqashunoslar bu sohalarida ishtirok etmagani sababli, musiqiy bozor shakllanishi tasodifiy va tizimsiz, ilmiy asosdan yiroq tarzda kechmoqda. Yana bir dolzarb masala – **ilmiy muhitdagi raqobatning pastligi**, musiqashunoslar uchun grantlar va xalqaro hamda mahalliy tanlovlarning yetishmasligidir. Yevropa va AQSHda har yili musiqashunoslik bo‘yicha yuzlab stipendiyalar, doktorantura grantlari, konferensiya chaqiriqlari e‘lon qilinadi. Masalan, Society for Ethnomusicology (SEM) o‘nlab tanlovlar, tadqiqot grantlari va fikrlar almashinuvi uchun maydon yaratadi. Biroq O‘zbekistonda musiqashunoslar uchun muntazam grant tizimi mavjud emas, bu esa yosh tadqiqotchilarning ilmiy raqobatda o‘lishini cheklaydi. Natijada “ichki bozor” kam rivojlangan, maktablar o‘rtasida sog‘lom akademik bahs mavjud emas, yangi nazariyalar deyarli yaratilmaydi, eskicha yondashuvlar takrorlanaveradi. Maqomlarni qayta notalashtirish masalasi ham eng muhim nazariy muammolardan biridir. Hozirda o‘zbek maqomlarining ko‘plab nashrlari (1950- yillardagi, 1970-yillardagi, 2000-yillardagi) bir-biridan farq qiladi; intonatsiyalar, parda o‘zgarishlari, ritmik formulalar turlicha talqin qilingan. Zamonaviy global amaliyotda esa masalan, turk makomida Arel–Ezgi tizimi yaratilib, barcha maqomlar yagona ilmiy asosda qayta tizimlashtirilgan; eron musiqasida dastgohlar uchun bir xil tahliliy model ishlab chiqilgan; hind musiqasida har bir raga uchun qat’iy “aaroa– avaroa”, “pakad”, “vadi–samvadi” kabi tuzilmalar normative shaklga keltirilgan. O‘zbek musiqasida esa maqomlarning “normativ modeli” hozirgacha yaratilmagan. Bu esa nafaqat ilmiy izlanishga, balki ijrochilik amaliyotiga ham ta’sir qilmoqda: har bir maktab o‘zicha talqin qiladi, ayrim pardalar nomi farqlanadi, maqomlararo o‘tishlar turlicha beriladi. Shu bois, zamonaviy akustik o‘lchovlar asosida “O‘zbek maqomlarining standart intonatsion modeli”ni yaratish dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro tajriba shuni

ko'rsatadiki, musiqiy merosni rivojlantirish uchun uch asosiy omil kerak: nazariy maktab, raqamli laboratoriya, ilmiy raqobat va grant tizimi. Turkiyada ITU (Turkish Music State Conservatory) qoshida Makam Analysis Lab faoliyat yuritib, har bir maqomning real ijro spektrogrammasi bo'yicha raqamli model yaratmoqda. Hindistonda Banaras Hindu University va ITC Sangeet Research Academy) raqamli raga laboratoriyalarini shakllantirgan. AQSHda MIT (Music Technology Lab folklore musiqa tizimlarini mashinaviy o'qitish asosida tahlil qilmoqda. Bu jarayonlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy merosni saqlab qolish faqat "qadriyatni asrash" emas, balki uni ilmiy asosda qayta yaratish, modellashtirish va tizimlashtirish jarayonidir. Xulosa qilib aytganda, o'zbek musiqashunosligi hozir hal qilinishi shart bo'lgan bir qator muammolar bilan yuzma-yuz turibdi: Ushbu muammolarni hal qilishda O'zbekiston musiqashunosligi uchun strategik vazifalar global tendensiyalar, raqamli texnologiyalar va iqtisodiy madaniyat rivoji sharoitida milliy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Eng birinchi vazifa – milliy musiqiy nazariyani modernizatsiya qilish, maqom va an'anaviy tizimlarni ilmiy asosda tahlil qilish va modellashtirishdir. Ikkinchi vazifa – raqamli texnologiyalar va sun'iy intellect yordamida musiqiy tahlilni joriy etish, milliy arxivlarni raqamlashtirish va interaktiv tizimlar yaratishdir. Uchinchi vazifa – musiqa va iqtisodiyotni birlashtirish, milliy musiqa bozorini ilmiy asosda tahlil qilish va ijodkorlar daromad tizimini rivojlantirishdir. To'rtinchi vazifa – ilmiy raqobat va grant tizimini mustahkamlash, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro tanlovlar tashkil etishdir. Beshinchi vazifa – milliy musiqani global kontekstda qayta talqin qilish, gibril va transmilliy shakllarni tadqiq etishdir. Oltinchi vazifa-milliy musiqiy nazariyani xalqaro standartlarga moslashtirish, spektral va statistic tahlil asosida ilmiy atamalarni yangilashdir. Yettinchi vazifa – ilmiy-arxiv va raqamli saqlash tizimlarini yaratish, merosni raqamli formatga o'tkazishdir. Sakkizinchi vazifa – multidisiplinar tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro tajribani integratsiya qilishdir. Bu vazifalar amalga oshirilganda, O'zbekiston musiqashunosligi nafaqat milliy merosni saqlaydi, balki global ilmiy maydonda o'z o'rnini mustahkamlab, innovatsion va zamonaviy tadqiqot markaziga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arom, S. (2004). African Polyphony and Polyrhythm: Musical Structure and Methodology. Cambridge University Press.
2. Benetos, E. (2019). Proceedings of the International Society for Music Information Retrieval (ISMIR). ISMIR.
3. Born, G. (2012). Music, Sound and Society: Cultural Analysis of Music. Polity Press.

4. Cook, D. (2014). *Beyond the Score: Music as Performance*. Oxford University Press.
5. Farhat, H. (1990). *The Dastgah Concept in Persian Music*. Cambridge University Press.
6. Feld, S. (2012). *Sound and Sentiment: Birds, Weeping, Poetics, and Song in Kaluli Expression*. Duke University Press.
7. Hesmondhalgh, D. (2010). *The Cultural Industries*. SAGE Publications.
8. Levitin, D. (2018). *This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession*. Dutton.
9. Nettl, B. (2015). *The Study of Ethnomusicology: Thirty-one Issues and Concepts*. University of Illinois Press.
10. Taruskin, R., & Treitler, L. (2009). *Musicology and Its Discontents*. University of California Press.
11. UNESCO. (2018). *World Report on Cultural Diversity*. UNESCO Publishing